SOBIQ TUZUMNING QATAG‘ONLIK SIYOSATI: TARIX VA TAXLIL

Dilhavas To‘lanboyeva
NamDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sobiq sovet tuzimining O‘zbekistondagi qatag‘onlik siyosati, bu siyosat natijasida nohaq qatag‘on qilingan yurtimizning begunoh siyosiy aboblari, milliy ziyolilari, shoir va yozuvchilari, olim va adiblari hamda ularning fojeali taqdiri haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Sobiq tuzum, sho‘rolar, Stalin, O‘zbekiston, siyosiy aboblar, milliy ziyolilar, shoirlar, yozuvchilar, mustaqillik, 31-avgust.

O‘zbekiston 70 yildan o‘rtiq sobiq sovet tuzumi davrida yashadi. Bu davr O‘zbekiston tarixining O‘zbekiston SSR davri deb ataladi (1925 – 1991-yillar).

Sobiq sovet tuzumi davrida O‘zbekistonda bir necha bor daxshatli qatag‘onlik siyosati amalga oshirilgan. Dastlab Stalin boshchiligida bu tuzum XX asr 20-yillarning oxiri – 30-yillarning boshlarida “Quloq siyosati” bilan bir qatorda “18 lar guruhi”, “inog‘omovchilik”, “qosimovchilik”, “badriddinovchilik” kabi soxta, to‘qima ishlarni uyushtirdi va xalqimizning ilg‘or fikrli, davlat lavozimlarida ishlaydigan, xalqimiz va respublika sha’nini himoya qilishga urungan bir qator insonlarini yo‘q qildi.

1937 – 1938-yillarda sovet tuzumining olib borgan qatag‘onlik siyosati natijasida yurtimizning ham bir qator rahbar kadrlari, siyosiy arboblari, ilg‘or ziyolilari ham qurbon bo‘ldi. Ular o‘qigani, o‘qishni hohlagani, bilgani, o‘z fikrini barilla ayta va yoza olgani, adolatsizlikka qarshi chiqqani uchun qatag‘on qilindi.

Sho‘ro hukumati millatning guli bo‘lgan, xalqning eng ma’rifatli vakillari bo‘lgan ziyolilarni ayovsiz qatag‘on qilgan. Hattoki shoir, yozuvchilar ozgina ozodlikni tarannum etuvchi she’rlari, asarlari uchun qamoqqa olingan, yoki qatag‘on qilingan. Yurtimizning mashhur olimlardan biri Naim Karimov bu davrlarni “Hasratli tarix” deb ataydi va quyidagilarni qayd etadi: “Mening to‘liq bo‘lmagan ro‘yxatimda otib tashlanganlarning orasida Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Otajon Hoshimov, Ziyo Said, katta tilshunos o‘zbek olimi G‘oziolim Yunusov, Mo‘min Usmonov, Muhammad Hasanov, Qosim Sorokin, Ziya Gimadinov kabi o‘nlab insonlar bor edi. Bularning hammasi o‘zbek adabiyotining, o‘zbek madaniyatining yirik namoyandalari bo‘lgan. Ularning birortasi ustidan sud jarayoni bo‘lmagan. Besh minutning ichida so‘roq qilingan, so‘rog‘iga bergan javoblari asosida uni xalq dushmani ekanligi “isbot qilingan”. Sho‘ro hukumati har qanaqa demokratiya normalarini yig‘ishtirib qo‘yib, O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda olib borgan siyosatida nihoyatda vaxshiy bir

tuzumni yaratgan davlat sifatida ish ko‘rganligini va o‘zbek xalqining eng ilg‘or ziyolilarini qirib tashlaganini aytmoqchiman”[27].

Sobiq tuzumning qatag‘onchilik siyosati 1980-yillar o‘rtalarigacha davom etgan bo‘lib, bu davrgacha ko‘plab o‘zbek ziyolilari, olim, shoirlari – Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, shuningdek, Fayzulla Xo‘jayev, Turor Risqulov, Abdulla Raximboyev singari davlat arboblari, olimlar, xorijda o‘qib qaytgan A.Murodiy, S.Jabbor, S.Muhammad, F.Sherahmedov, R.Rasuliy singari agranom, genetik, tibbiy olimlar, jurnalist, pedagoglar asossiz ravishda nemis josuslari, millatchilik tashkilotini a’zolari sifatida ayblanib qatag‘on qilingan.

Buyuk jadid mutaffakirlaridan biri Abdurauf Fitrat 1938-yilning 4-oktabrida Toshkentning Bo‘zsuv anhori bo‘yida otib tashlangan. Bo‘zsuv anhori bo‘yida otib tashlanganlar orasida Abdulhamid Cho‘lpon ham bor edi. Shuningdek, Is’hoqxon To‘la Ibrat va Ashurali Zohiriylar kabi o‘z davrining yetuk fikrli ziyolilari 1937-yilda o‘limga hukm etilgan. Bu vatandoshlarimizning o‘limga hukm etilishiga sabab ularning ilg‘or g‘oyalari edi. Xususan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga o‘zining ilg‘or fikr va g‘oyalari bilan katta ta’sir ko‘rsatgan. Romanda XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida bo‘lib o‘tgan voqealar yorqin misollar bilan ko‘rsatib beriladi, insoniy taqdirlarga oydinlik kiritiladi. Roman ma’rifatparvarlik xususiyatiga ham ega bo‘lib, xalqqa taraqqiyot g‘oyalari yetkaziladi. Millat rivojiga to‘sqinlik qilayotgan voqealarga ishora qiladi[28].

Naim Karimovning “Qatag‘on qurbonlari va ularning adabiy-badiiy hamda publisistik merosi” kitobida ma’shum qatag‘onlik davri haqida ushbu jumlalar keltiriladi: “Bugun biz 1937 – 1938- yillarda yuragini hovuchlab yashagan xalqning uyidagi arab yozuvida bitilgan noyob bosma va qo‘lyozma asarlarini muqovasiga “Cho‘lpon”, “Abdulla Qodiriy”, “Fitrat”, “Fayzulla Xo‘jayev” singari ismlar yozilgan kitoblarni anhorlarga olib borib, sinch devorlar orasiga yashirib yoki gulhanlarda yondirib tashlaganini eslab ko‘z yoshlarimizni duv-duv to‘kamiz. Shu kitoblar bilan birga buyuk olimlarimiz va yozuvchilarimizga Alloh bergan aql-zakovat va porloq iste’dod samaralari ham yonib kul bo‘lgan”[29].

“Shahidlar xotirasi” jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, birgina 1937-yilning sentyabr’ oyida hozirgi O‘zbekiston hududida 10700 kishi hibsga olinib, sudlangan. Ulardan 3613 nafari o‘lim jazosiga hukm qilingan, 7087 nafari esa 8 yildan 10 yilgacha bo‘lgan lagerlarda qamoqda saqlangan. Shu yilning 13-noyabridan – 28-noyabrigacha bo‘lgan davrda 1611 kishi sudlangan bo‘lsa, 1937-yil dekabr’ oyida mahkumlar soni

[27] Karimov N. Qatag’on qurbonlari. – Toshkent, 2015. – B. 164.
[28] Alimova D. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent, 2022. – B. 242.
[29] Karimov N. Qatag’on qurbonlari va ularning abadiiy, badiiy, pulisistik merosi. – Toshkent, 2015. – B. 3.

3610 kishini tashkil etgan. Qurbonlar orasida Abdulla Qodiriy, Fitrat, Choʻlpon kabi taniqli arboblar, olim va adiblar bor edi[30].

Umuman olganda 1937 – 1953-yillarda birgina Oʻzbekiston SSR ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD) tomonidan 100 mingdan ortiq kishi qatagʻonga uchrab, 15 ming nafari otib tashlangan. 1936 – 1940-yillarda faqat davlat arbobi va yozuvchi, shoirlar, olimlardan 5758 kishi qamoqqa olinib, ularning 4811 tasi otib tashlangan.

Sobiq ittifoqda “Xalqlar otasi”, “Xalqlar dohiysi” Stalin oʻlimidan soʻng (1953), qatagʻon qilinganlarni oqlash jarayoni boshlanadi. Oʻzbekiston boʻyicha otilgan va qamoqqa olinganlardan 40 000 nafarga yaqin kishi oqlanadi. Lekin, mustabid sovet rejimi oʻziga maʼqul kishilarnigina grajdan (fuqaro) sifatida oqlaydi. Biroq Stalin oʻlimidan soʻng ham “boshqacha fikrlovchilar” taʼqib ostiga olinadi va ularning eng oʻtkirlari doimiy ravishda qatagʻon qilib boriladi[31].

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan soʻng qatagʻon qilinganlarning koʻpchiligi huquqiy jihatdan oqlandi. Ularning porloq nomlari tiklandi. Qatagʻon qurbonlarini oʻrganish, ularning nomlarini abadiylashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-mayda eʼlon qilgan farmoyishi, 1999-yil 22-iyuldagi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vatan va xalq ozodligi yoʻlida qurbon boʻlgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish toʻgʻrisida” qarori qabul qilindi. “Shahidlar xotirasi” xayriya jamgʻarmasi tuzildi[32]. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 1-mayda qabul qilgan “Qatagʻon qurbonlarini yod etish kunini belgilash toʻgʻrisida” farmoni asosida 2002-yil 31-avgust kuni Toshkent shahrining Yunusobod tumani, Boʻzsuv arigʻi yonida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etildi.

[30] https://uzbekiston.travel
[31] Zamonov A. O’zbekiston tarixi. – Toshkent, 2017. – B. 110.
[32] http://mustaqillik.uz